

**TALABALARNI MA'NAVIY-MA'RIFIY RUHDA TARBIYALASHDA MILLIY  
QADRIYATLARIMIZNING O'RNI**

Normo'minova Gulhayo Shavkat qizi  
*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institute, assistant.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada talabalarni ma'naviy-ma'rifiy ruhda tarbiyalashda milliy qadriyatlarimiz haqida to'plangan manbalar asosida atroflicha fikrlar bildirilgan. Maqolada ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan adabiy yodgorliklarda ham milliy qadriyatlarning bola tarbiyasida bosh mezon hisoblanishi ta'kidlanadi. Biz milliy qadriyatlarimiz orqali qadimdan o'z xalqi vatani uchun jonini ham ayamaydigan buyuk va betimsol mardlik va jasorat namunasi bo'lган qahramonlarni tarbiyalab kelinganini o'qiganmiz. Ularda yuksak ma'naviy tafakkur yaxshi tarbiyalanganligining ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** milliy, qadriyat, xulq-atvor, meros, an'ana, ma'rifat, marosim, ijtimoiy identifikasiya, agressiya, qadriyat.

Uzoq yillik tarixga ega milliy qadriyatlarimiz bugungu kunda ham tarbiyning bosh omili bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Ajdodlarimiz meros qilib qoldirgan urf-odatlar, an'analar asosida inson o'zining axloqiy jihatlarini shakllantirib boradi. Ota-bobolarimiz qoldirgan tajribasi farzand tarbiyasida, ularning ma'naviy-ma'rifiy ruhiyatining kamol topishida bemisl manba hisoblanadi. Bilamizki, sharq xalqlarining falsafiy asarlarida ma'naviy tafakkurni tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor berilgan.

Milliy qadriyatlarimizning tarbiyadagi muhim jihatlarini adabiy yodgorliklarimiz orqali ham bilishimiz mumkin. Xususan, har bir millatning o'z afsonaviy qaxramonlari, o'zi sevib ardoqlaydigan pahlavonlari bo'ladi. Xalqimiz azaldan o'z vujudi, o'z tomirida mavjud ilohiy qudratga munosib bo'lmoqqa intilib, o'z o'g'lonlarini mardlik va halollik, jasurlik ruhida, el-yurt uchun jonini ham ayamaydigan asl polvonlar qilib tarbiyalashga harakat qilgan. Shular orasida xalq og'zaki ijod durdonasi bo'lgan «Alpomish» dostoni millatimizning ma'naviy yuksakligini namoyon etadigan, avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan qahramon hisoblanadi. «Alpomish» xalqimizning qadimiyligi va shonli tarixining shoh durdonasi bo'lish bilan birga, xalqning bag'rikengligi, matonatli, olivjanoblik, vafo va sadoqatlilik kabi ezgu fazilatlari o'zida ifoda etgan. Shu bois «Alpomish» dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq berar ekan, insonlarni odil va haqiqiy bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, do'stu yorimizni, or-nomusimizni ota-bobolarimizning muqaddas joylarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi. Bu o'lmas asarni xalqimiz asrlar davomida yaratgan, o'z iymon e'tiqodidan asrab-avaylagan qancha avlod-ajdodlarimiz «Alpomish» dostoni asosida tarbiya topgan, o'zligini anglagan, ma'naviy boylikka ega bo'lgan.

Xalqimiz azaldan islom dini va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shib kelgan. Ajdodlarimiz tomonidan o'tmishda diniy-tasavvufiy asarlar ham yozildiki, ularda bolalarning manaviy tafakkuri ahloqiy fazilatlarini tarbiyalash masalalari ilgari surilgan bo'lib, ular

manaviyatimizning tarixidan munosib o'rin egallaganlar. Imom al Buxoriy, Imom at-Termizi, A.Yassaviy, Zamashariy, Baqirg'oniy, Bahouddin Naqshband, Najmuddin Kubro va boshqalar shular jumlasidandir. Buni butun musulmon dunyosi yaxshi biladi va tan oladi. Nufuzli xalqaro tashkilot bo'lmish Islom konferensiysi tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tuzilmasi – AYESKO tomonidan Toshkent shahrining 2007 yilda islom madaniyatini poytaxti deb e'lon qilinganligi ham ana shunday yuksak e'tirofga loyiq ekanligini ko'rsatadi.

Milliy ma'naviyatimiz yuksalishida, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda ulug' zotlardan yana biri Alisher Navoiy ijodiga, uning o'zbek tili rivojlanishiga qo'shgan hissasini qayd etib o'tish asosiy burchimizdir. Alloma o'zining qator asarlarida ta'lim-tarbiya masalalari umuminsoniy g'oya ekanligini ta'kidlab, jamiyatning yetukligi, uning taqdiri va kelajagi yoshlari kamoloti bilan bog'liq, shunga ko'ra, bola tarbiyasi ota-onalar oldida turgan muhim vazifa, - deydi.

Har bir xalq ma'naviyatiga xos qadriyatlarning boshqa xalqlar tomonidan tan olinishi, tabiiyki, ana shu xalq tarixiga nisbatan chuqur hurmat ifodasidir. Bunday e'tirof xalqning g'urur va iftixori, milliy o'zligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Bu borada chorizm mustamlakasi davrida ham ma'naviyat va ma'rifatg'oyasini baland ko'tarib chiqqan. Jadidchilarining faoliyati ham bunga misol bo'la oladi. Bular Behbudiy, Munavvar qori, Avloniy, Ibrat, Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon, U. Nosirlar bo'lib ma'rifat, ma'naviyat ishlarini yuksaltirishda o'z hissalarini qo'shgan ana shunday ulug' ajdodlarimizning ilmiy-ijodiy merosi va ibratli faoliyati keyinchalik diyorimizda Qori Niyoziy va Toshmuhammad Sarimsoqov, H.Abdullayev, S.Sirojiddinov, O.Sodiqov va S.Yunusov, Ya.G'ulomov, B.Axmedov, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor va Zulfiya, Said Axmad va Ozod Sharofiddinov kabi ma'rifat va ma'naviyat, ilm-fan va madaniyat arboblari yetishib chiqishi uchun zamin bo'ldi.

Milliy-ozodlik kurashi jarayonida yuzaga kelgan, o'zbek xalqi tarixida yangi sahifani ocha boshlagan ijtimoiy harakat namoyondalaridan biri bu Abdullo Avloniy hisoblanadi. U millatni ma'naviy bilimsizlikda ayblab, xalqni savodli bo'lishga undaydi. Allomaning «Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari najotidir», degan g'oyasi ma'rifatchilik harakatining dasturini tashkil etadi. U ma'rifatparvar safdoshlari singari Turkiston ahlini ilm- ma'rifatchilik bahramand qilishda unitilmas xizmatlar qildi. Ayniqsa, uning «Turkiy Guliston yoxud-axloq» kitobida ma'naviy ma'rifiy omillar ilm-fanning jamiyat tarraqqiyotidagi o'rni haqida qimmatli fikrlar bayon qilgan. «Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilattdur. Zeroiki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatlarimizni oyna kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur, savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurib berur. To'g'ri yo'lga rahnamolik qilib, dunyo va oxiratda ma'sum bo'lishimizga sabab bo'lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabitur» [21; 11.].

Talabalarda ma'naviy-ma'rifiy ko'nikmalarni shakllantirishda har-xil yoshdag'i talabaning ma'naviy madaniyati, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ta'lim sharoitlaridan unumli foydalanishlar yuzasidan J.Tulenov [80], A.T.Tilegenov [77], M.O.Inomova [35], T.Maxmudov [48], R.Mamatqulova [46], S.Nishanova [67], N.Ortiqov [70], Sh.A.Atadjanova [25], M.Ochilov [71], Q.R.Shonazarov [99], G.I.Maxmutova [51], O.M.G'aybullayev [105], Z.T.Nishanova [66],

Sh.Q.Mardanov [47], G.J.Tulenova [82], D.I.Ro'ziyeva [75], Sh.S.Shodmonova [98], O.R.Jamoliddinova [29] lar qator tadqiqotlar olib borgan.

Shuningdek, tarbiyalash masalalari yuzasidan mamlakatimiz olimlari E.G'oziyev [106], S.Atamuratov [26], O.Musurmonova [62], M.Quronov [103], U.I.Maxkamov [49], Z.K.Qurban niyozova [102], B.R.Adizov [22], F.R.Norboyeva [69], X.J.Xudoyqulov [89], B.X.Xodjayev [87] larning ilmiy tadqiqot ishlarida ma'naviy tafakkurni tarbiyalashda maktab, oila, jamoatchilik va mahalla hamkorligi masalalari, uning uzviyligi tahlil etilgan.

Jumladan, R.Mamatqulova o'zining «Milliy-ma'naviy meros asosida universitetlar talabalarida xulq-odob fazilatlarini tarbiyalash» nomli ilmiy-tadqiqot ishida talabalarni ma'naviy meros orqali tarbiyalash masalalariga to'xtalib o'tish bilan ma'naviy masalalarni ochib berishga harakat qilgan.

Tarbiya - jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir. Jamiyat esa nomilliy bo'la olmaydi. Tarbiya yordamida avlodlarning sinalgan, eng ma'qul, taraqqiyparvar tajribasi o'zlashtiriladi va yangi avlodga yetkaziladi, odamlarning ongi, hulqiga shu jamiyatda qabul qilingan axloq me'yordi singdiriladi, yetakchilik qilayotgan mafkura o'zlashtiriladi» [103].

Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy va ma'naviy o'zgarishlar jamiyatimiz ijtimoiy hayotida tub burilishni boshlab berdi va ular o'zbek xalqining bundan keyingi taqdirini belgilab berishda muhim rol o'ynaydi. Har bir jamiyat o'zida barkamol avlodning ma'naviy tafakkurini tarbiyalashni eng yorqin orzusi deb hisoblagan. Biroq dunyo xalqlarining barchasi ham bu haqda o'ylayvermagan. Hozirgi kundagi «asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi «virusi» tarqalishining oldini olishdir» [18; 252].

Birinchi bo'lib talabalarni ma'naviy-ma'rifiy ruhda tarbiyalash jarayoni uch asosiy mezonlarni o'z ichiga qamrab olganligini aniqlab olindi. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1) Kognitiv mezon ma'naviy tafakkurni tarbiyalashga oid adabiyotlarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy qilishni ko'zda tutadi. U tarbiyaning quyidagi vazifalarini aniqlab beradi: ma'naviy ruhni tarbiyalashni rivojlantirish muammosiga yo'nalganlik, ma'naviy ruhni rivojlantirishga doir ma'rifiy bilim ko'nikma va malakalarni to'ldirib borish.

2) Affektiv mezon dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalarning emotsiyal barqarorligini ta'minlash maqsadida ma'naviy-ma'rifiy sohalarga doir kompetentlikni rivojlantirishni talab etadi.

3) Milliy ma'naviy qadriyatlar asosida muloqot madaniyatini shakllantiradi, odob-axloq me'yordi bo'yishni hissini paydo qiladi va ularda ijtimoiy-huquqiy faolligini rivojlantirishni taqoza qiladi.

Yuqorida keltirilgan mezonlar asosida tajriba-sinov olib borish uchun belgilangan ta'limga muassasalari bilan hamkorlik jarayoni, dars va darsdan tashqari o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlar, ayniqsa, ma'naviy tafakkurni tarbiyalanganlik darajalarining imkoniyatlari o'rganildi.

Tadqiqot muammosini nazariy va amaliy jihatdan mavjud holatini o'rganish, shu jumladan, talaba yoshlarning aksariyati o'zlarida ma'naviyat, ma'naviy tafakkurni tarbiyalashga nisbatan befarq ekanligi yoki bu kabi fazilatlarning past darajada

rivojlanganligini ko'rsatdi. Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish jarayonida bu holatning sababi va omillari o'rganildi. Talaba yoshlar faoliyatini bevosita va bilvosita kuzatish, ular bilan o'tkazilgan suhbatlar, bahs-munozaralar, so'rovlar natijalari mazkur sabablarni aniqlashga yordam berdi.

Talaba yoshlar ma'naviy tafakkurini tarbiyalashni takomillashtirish maqsadida tajriba-sinov olib borish uchun belgilangan maydonda talaba yoshlarga vatanparvarlik, axloqlilik, ma'naviyat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tushunchalarining mazmuni va mohiyatiga kengroq e'tibor berildi. Xususan, Vatanni sevish oiladan, ota-onani sevishdan boshlanadi, degan ma'nolarni, ota-onaning bolaga bo'lgan mehr-muhabbati o'z vaqtida Vatanga bo'lgan muhabbat bilan uyg'unlashib ketishi zarurligi ko'rsatish bilan boshlanadi.

Insonning o'z-o'zini va o'zga kishiga nisbatan ahloqiylik, go'zallik va diyonat asosida munosabat kashf etishi - g'oyat katta san'atdir. Oilaviy tarbiyada xuddi ana shu xususiyatlar muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Farzandning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasiga dastlab oilada e'tibor beriladi. Shunday ekan, «Nima yomon, nima yaxshi?», «Odobli bo'l, sabrsizlik qilma», «Har bir fikrlaringni o'ylab gapir», degan so'zlar bilan ularning ma'naviy tafakkurini tarbiyalab borishga barcha imkoniyatlarni qaratamiz. Bola jamiyatga qanchalik chuqurroq kirib borar ekan, uning ijtimoiylashuvi shunchalik tezlashish bilan birga, u shaxs sifatida ham shakllanib boradi, uni baholash esa ko'p qirrali.

Ma'naviy jihatdan qudratli davlat iqtisodiy jihatdan kuchli bo'lib ketishi mumkin. Ma'naviy boy xalq o'z mamlakati oldida turgan har qanday vazifalarni to'g'ri anglab yetadi va davlatning ma'naviy salohiyati oshadi.

Jamiyat a'zolarining ma'naviy tafakkurini tarbiyalash, ularni shakllantirish, ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilganligi, kishilarining milliy jihatlari, yashash va mehnat qilish sharoitlari, turmush tarzi, diniy e'tiqodlari va milliy qadriyatlar katta ta'sir ko'rsatadi. Natijada ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos tomonlari, ya'ni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash usullari kelib chiqadi. Bu esa milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizning tarkibiy qismi bo'lib kelgan. Talaba yoshlar ma'naviy tafakkurini tarbiyalashda ma'naviy-ahloqiy tarbiya ichki omil hisoblanadi. Ota-onalarning farzandlariga qoldiradigan eng katta merosi ularga o'rgatadigan, milliy qadriyatlarga asoslangan axloq va odobdir. Shunday ekan har bir millat, uning ma'naviy kamoloti bilan bog'liq bo'lgan tarbiyaning o'ziga xos milliy usullari, mazmuni va yo'nalishlari ham takomillashib boraveradi. Bu borada milliy qadriyatlarimiz asosida xalq pedagogikasi an'analari, udumlar va qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy hodisa sifatida davr taqozosi bilan o'zgarib, sayqallanib jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo'lib qolaveradi.

Talabalar ma'naviy tafakkurida vatanparvarlik, milliy iftixor tuyg'usining shakllanishi muhim ahamiyatga ega. «Vatanostonadan boshalanadi», degan ibora chuqur mazmunga ega. Bundan Vatan tuyg'usini ona allasida, o'z oilasi bilan birga shakllantirishi lozim degan ma'no kelib chiqadi. Har bir oila, qarindosh-urug', qo'ni-qo'shnilar bilan do'stona munosabatlar o'rnatara ekan, «Xalq» deb atalgan katta oila yoki jamiyat a'zolari bilan aloqada bo'ladilar. Shu

tarzda Vatan tushunchasi insonga yaqin bo'lib qoladi va u inson qalbining eng muqaddas hissi hisoblanadi. Bu borada har bir ota-on, o'qituvchi va tarbiyachi bolalar bilan Vatan haqida, Vatan oldidagi muqaddas burch haqida suhabatlashar ekan, yurt obodligi, uni kelajak avlodga yangi imkoniyatlarga ega bo'lgan darg'a sifatida, ajdodlar hoki-poki shu yerda ekanligiga e'tibor berish lozim.

O'zbek xalqining milliy qadriyatlari, udum va urf-odatlari minglab yillar davomida o't-olovida toblanib, mashaqqatli turmush sinovlaridan o'tib, xalqimizning amaliy qoidasi – hayot qonuni bo'lib, ular bora-bora xalqimiz ma'naviy ongiga, qoniga, jon-joniga singib, mutlaq udum, urf-odatlari va an'analari darajasiga ko'tarilgan. Bunday qadriyatlarni hyech qachon zo'rlik bilan, buyruq va farmon bilan yo'q qilib bo'lmasligini hayot allaqachon isbotlagan. Shuning uchun talaba yoshlar ma'naviy tafakkurida tarbiyaning birinchi kunlaridan boshlab singdirish, uni doimiy hayot tajribasi bilan uyg'unlantirgan holda olib borish lozim. Ayni paytda farzand tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan ayrim udum, marosim va rasm-rusumlar haqida qisqa to'xtalib o'tamiz.

Bolaning dunyoga kelishi oilada eng quvonchli va muhim voqyea hisoblanadi. Oila mustahkam va barqaror bo'lishida farzandlarning o'rni beqiyos. Farzandsiz oila baxtsiz hisoblanib, tezda er-xotinning ajrashib ketishlariga sabab bo'ladi. Markaziy Osiyo xalqlarida, ayniqsa, o'zbeklarda serfarzand oilalar juda hurmat qilingan. Xalqimizda «Puling, moling bo'lmasa ham bolang bo'lsin», deyilgan. Serfarzand ayollar baxtli hisoblangan. «Bolalikning beli chinor, bolasizning beli sinar», «Bola – ro'zg'or tayanchi», «Bolali uy - bozor, bolasiz uy - mozor», «Baliq tirikligi suv bilan, odam tirikligi farzand bilan», «Qirqta bo'lsa, qilig'i boshqa, o'nta bo'lsa, o'rni boshqa» kabi maqollar bekorga aytilmagan.

Oilada ota o'g'il, ona esa qiz tug'ilsa suyunishgan. Ular hamisha farzandlar ko'payishini niyat qilishgan. Masalan, to'y marosimlarida tovuq tuxumi, qo'y go'shti, yong'oq, mayiz, tuz va boshqa mahsulotlar, meva-chevalarning ishlatalishi serfarzandlikka ishoradir. Kelin otga minganda oldiga 7-8 yashar o'g'il bola (ukasi yoki jiyani) mindirilgan, kelin-kuyovlar chimildiqqa kirishganda tizzalariga 1-2 yashar go'dak (o'g'il bola) o'tqazilgan. Kishilar shu ikki yosh ham baxtli, uvali-juvali bo'lishsin, deb niyat qilishgan.

Farzandga ism qo'yish xalqimizning milliy qadriyatlardan biri bo'lib, o'sha xalqning milliy qiyofasini belgilaydi. Ajdodlarimidan o'tib kelayotgan udumga ko'ra ota-on o'z farzandlariga yaxshi va munosib ism qo'yganlar. Ular bir-birlarini to'ng'ich bolasining ismi bilan chaqirib, ota ismi muqaddas hisoblangan. Milliy qadriyatlarmizga asosan bolani beshikka bog'layotgan kuni ism qo'yiladi. Hozirgi kunda esa ko'pincha otalar momo va bobolarimiz tavsiyasiga ko'ra guvohnoma olayotganda qo'yishadi. Chaqaloqning ismi bobo, momosining roziligi bilan mulla tomonidan go'dak qulog'iga juma kuni azon chaqirilgan paytda qo'yilgan. Ismlar ba'zan kitob ochirib ham qo'yilgan. Bolaga chiroyli va go'zal ism qo'yish ham bola tarbiyasida o'z ta'siriga ega bo'lib, go'dakni yomon xulq-atvordan asrab turadi. Ajdodlarimiz milliy ismlar boyligiga, bolani nomlash udumlariga katta hurmat bilan munosabatlarda bo'lishgan va uni asrab, ko'paytirishga harakat qilgan.

O'zbek xalqining ezgu urf-odatlari, an'ana, to'y-tomoshalarida farzandlarning sog'lom, ishchan, kasb-hunarli, mehnatsevar bo'lib o'sishini niyat qilib o'tkaziladigan bir qancha to'ylarimiz mavjud:

Tug'ilish to'yi. Bola tug'ilgan kuni xonodon boshlig'i yaqin birodarlari, qo'ni - qo'shnilar va qarindosh-urug'lar to'planib, muborakbod qila boshlaydilar. Ko'pincha, oila va yaqinlar davrasida, ba'zan mahalla-ko'y, xotin-qizlar, bola-chaqalar orasida nishonlanadi. Go'dakning otasi mol so'yib elga osh ham beradi.

Beshik to'yi. Har bir o'zbek oilasida o'g'il uylantirib, qiz chiqarib, yangi oilani vujudga keltirar ekanlar, yoshlarning tinch-totuv yashashlari uchun, o'zlaridan ko'payib yashashlari uchun yaxshi niyat bilan ularning serfarzand bo'lislini orzu qiladilar. Bo'lajak nevara uchun asta-sekin tayorgarlik ko'rib boradilar. Bola tug'ilishi bilan ota-onalar nevaraga atab kiyim-kechak, yangi beshik va uning anjomlari, qizi, kuyovi, qudalariga, ularning yaqinlariga atab sarpo tayyorlaydilar hamda beshik to'yi uchun hozirlik ko'radilar.

Xalqimizning azaliy udumlariga ko'ra, «Beshik to'yi»ning barcha xarajatlari kelin kuyovga va uning ota-onalari zimmasiga tushgan. Go'dak 2-3 yoshgacha beshikka belangan. Beshik qadimdan Sharqda, ayniqsa, o'zbek, tojik, qozoq, turkman, qirg'iz, eron, hind, afg'on, ozarbayjon va boshqa xalqlarda ishlatilib kelingan muqaddas joy, bola yotadigan manzil bo'lgan. Bu xalqlar bola tug'ilgandan so'ng, uni beshikka belash to'y-tomosha bilan o'tkazilgan. Xalqimizda keng tarqalgan xalq og'zaki ijodi namunalaridan biri – alla aytish. Ona allasi insoniyatning o'zi kabi qadimiyydir. U tarbiyaning asosiy kaliti hisoblanadi. Alla aytish har bir onaning talantini namoyon etishidir. Alla ilk til sabog'i.

Tish to'yi. O'zbekistondagi turli hududlarda bolaning dastlabki tish chiqishi turli udumlar bilan kutib olingan. Birinchi tish chiqishi bola uchun ancha og'ir, ota-ona, momo va buvalar uchun og'ir kechgan. Shuning uchun birinchi tish chiqishi uchun go'dakni avaylash, unga turli rasm-rusumlar qilish, nishonlash kabi odatlar mavjud bo'lgan. Shu kuni osh, non, patir, qand-qurs, meva-chevalar bilan bezatilgan dasturxon atrofida yig'ilishib nishonlashganlar. Go'dakka sovg'alar berilgan. «Sut tishi» marosimidagi duodan so'ng qolgan tishlar ham yengil chiqar ekan. «Sut tishlar» ning tushishi ham qo'yxonaga ko'mishgan, ba'zan "eskisini ol –yangisini ber" deb bolaga eski tishlarini orqaga qaratib osmonga ottirganlar. Shu bahona to'kin dasturxon yozilib, oilada do'stu qarindoshlar davrasida xushchaqchaqliq qilishgan.

Soch to'yi. Xalqimining azaliy odatlaridan biri «Soch to'yi» deb atalib, chaqaloqning tug'ma (ona qornidagi) sochini oldirish to'yi sifatida nishonlangan. Ba'zi bir hududlarda bu to'yni «Aqiba» nomi bilan ham yuritishgan. Bu marosimga ko'ra, bola tug'ilgandan keyin, o'n kun ichida yaqin kishilari yoki keksalar uning sochiga qaychi urishgan. Go'dakning boshidagi qorin sochini birinchi marta olayotganda bir tutam "kokil" qoldirishgan. Ayrim hollarda o'sha sochni «Haydar» deb yuritishgan, ularning ko'pchiligi u yoki bu mozor, aziz-avliyo, shayx-eshonlariga nazr qilish uchun qoldirishgan. Bola ma'lum yoshga yetganda o'sha mozor yoki aziz avliyolarga atashib mol-ko'y so'yib, osh tortib, xudoyi o'tkazganlar. Kokil «Haydar»ni shayx, eshonlarga oldirishgan.

Ba'zan kokillar sunnat to'yida ham olingan. Go'dakning qorin sochidan qolgan kokilni sunnat to'yiga 2-3 kun qolganda barcha sochiga qo'shib olishgan. Qiz bolalarning sochini bir yoshga yetganda keksa, serfarzand ayollar olishgan. Qiz bola bir yoshga yetganda qulog'i teshilib, sirg'a taqishgan. Qizlarning ma'lum yoshga yetganlarida soch o'rimlari ham o'sha yoshga mos holda o'zgarib borgan. 5-7 yoshdan so'ng qizlar sochi olinmasdan bir nechta qilib o'rabiq qo'yilgan.

Go'dakning asta-sekin ijtimoiylashuvi uning jamiyatga kirib kelishi va tarbiyalanishi nafaqat ota-onas, balki butun mahalla yoki qo'ni-qo'shnining ham asosiy burchi hisoblangan. Shuning uchun "Bir bolaga yetti qo'shni tarbiya beradi" deyishgan. Bola tarbiyasi barchaniki bo'lib, unga katta e'tibor berishgan. Tarbiya bola jinsiga qarab turli maqsadlarni o'z oldiga qo'ygan. O'g'il bola bo'lajak uy egasi, ro'zg'orni tebratuvchi, urug'-avlodlar davomchisi va merosxo'r sifatida qaralgan. Qiz bolaga esa yigitning yo'ldoshi, bo'lajak ona va uy bekasi sifatida mehr ko'rsatilgan. Bola tarbiyasida o'yin va o'yinchoqlarning o'rni katta bo'lgan. O'g'il-qizlarning birgalikdagi yoki alohida o'yinlari mavjud bo'lgan. Ularning «Mehmon-mehmon», «Qo'g'irchoq», «Yashinmachoq», «Yong'oq», «Oshiq», «Aqqol», «Bo'irma», «Tayoq», «Quloq cho'zma», «Chillak», «Zuv-zuv» kabi o'yinlari bo'lgan. Bu o'yinlar bolalarni chiniqtirgan va abjir bo'lishga xizmat qilgan. Bolalar bu o'yinlardan axloqiy va estetik qoniqish olishgan. O'zbeklarning farzandlariga bo'lgan mehr-muruvvati, yaxshi ezgulikka yo'g'rilgan udum va tamoyillari haqida major sayyohi Xerman Vamberi shunday degan edi: «O'rta Osiyo xalqlari urf - odatlarining yuksak darajada maqtovga sazovor bo'ladigan tomonlari shuki, ular o'z milliy xarakteriga ega bo'lgan ajoyib fazilatlarni qat'iyatlik bilan saqlaydilar» [86]. Bunday ma'naviy meros, albatta, talabalarni ma'naviy tafakkurini shakllanishida xizmat qiladi.

Xalqimiz tomonidan asrab-avaylab kelingan, o'zining ulkan va buyuk tarixiga ega bo'lgan qadriyatlar yoshlar tarbiyasida muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

#### ADABIYOTLAR:

1. Марданов Ш.Қ. Педагог кадрларни таълимий қадриятлар асосида тайёрлаш ва малакасини оширишнинг педагогик асослари: Пед. фан. док. ... дисс. - Т., 2006. - 302 б.
2. Махкамов У.И. Юқори синф ўқувчиларида ахлоқий маданиятни шакллантиришнинг педагогик асослари: Пед.фанл.докт. ... дисс. -Т.: 1998. -286 б.
3. Махкамов У. Ахлоқ-одоб сабоқлари. -Тошкент: Фан, 1994. -135 б.
4. Махмутова Г.И. Олий педагогик таълим тизимида талabalarni маънавий шакллантиришнинг ижтимоий педагогик хусусиятлари: Пед.фанл.номз. ... дисс. – Т.: 2004. – 179 б.